

Axtamov Jamshed Baxromovich – SamISI,
“Jismoniy madaniyat”
kafedrasi mudiri

E-mail: b.inatov2002@gmail.com

IQTISODCHI KADRLAR TAYYORLASHDA TA'LIM XIZMATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun quyidagi masalalar ko'rib chiqilgan: bozor iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati; iqtisodchi kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati; iqtisodiyotni erkinlashtirish davridagi o'ziga xos xususiyatlari.*

Kalit so'zlar: *Modernizatsiya, ta'lim xizmatlari, ta'lim ne'matlari, ta'lim dasturlari, tekin o'qitish, bevosita ta'lim xizmatlari, bilvosita ta'lim xizmatlari.*

Peculiarities of educational services in the training of economists

Annotation: *In the article considered following main specifics of market economy as soon as : social – economical issue of market economy; analyzed tasks preparing of economical specialists; main specific steps of liberity economy.*

Keywords: *Modernization, educational services, educational benefits, educational programs, free education, direct educational services, indirect educational services.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti milliy bozorning tarkibiy qismi bo'lib, unda taraqqiyotning asosiy resursiga aylangan bilimlar ayrboshlanadi. SHu bois, zamonaviy iktisodchi kadrlar tayyorlash sifatini shakllantirishning etakchi omili bo'lib hisoblanadi. Agar ushbu tezisga ishlab chiqarishning omillari inson omilining bevosita ta'sirida harakat qilishi nuqtai nazaridan qarasa unda iktisodchi kadrlar makro va mikroiqtisodiy darajalarda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir etib, pirovard natijada mamlakatning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta xissa qo'shadi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”¹.

Bilim kishilarning ijtimoiy mehnati va fikriy faoliyatining mahsuli bo'lib, u amaliy ravishda o'zgarayotgan olamining ob'ektiv, qonuniyatli aloqalarini qayta

¹ Shavkat Mirziyoyev, 2019-yil, 12yanvar, Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan.

hosil qilishdan iborat. Hozirgi davrda bilimlar etakchi iqtisodiy resurs sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida beqiyos o'zni egallaydi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili Ayrim iqtisodchi olimlar bozorning ma'lum jihatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Bu holat bozorning mohiyatini aniqlashtirishga yordam beradi. Xususan, bozor deganda asosan xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar xamda vositachilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tshuniladi va natijada ushbu ne'matlarga mulkga egalik xuquqini berish yuzasidan ixtiyoriy bitimlar tuziladi.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun uslubiy jihatidan quyidagi masalalar ko'rib chiqilishi lozim:

- bozor iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati;
- zamonaviy iktisodchi kadrlarning vazifalari;
- iktisodchi kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish davridagi o'ziga xos xususiyatlari.

CHunki, bozor iqtisodiyoti sharoiti faqatgina ayrboshlash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ta'riflash uning doirasini chegaralab, mohiyatini to'liq ochib berishiga imkon bermaydi.

Tadqiqot metodologiyasi Bozor iqtisodiyoti bevosita iktisodchi kadrlar tayyorlashga asoslanadi. Adabiyotlarning tahlili, «bilimlar», «ta'lim ne'matlari», «ta'lim xizmatlari», «ta'lim dasturlari» kabi tshunchalar kadrlar tayyorlash ob'ekti sifatida talqin etilishi ko'rsatilgan. Fikrimimizcha, ushbu tshunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etib, iqtisodiy va pedagogik nazariya nuqtai nazaridan iktisodchi kadrlar tayyorlash ob'ekti sifatida qaysi tshuncha qabul qilinishi maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash lozim.

Bilimlarni amaliyotga qo'llanishi eng avvalo ta'lim Hozirgi davrda bilimlar etakchi iqtisodiy resurs ularni «ta'lim ne'matlari» deb yuritiladi va ta'lim tizimidagi ehtiyojlar ular orqali qondiriladi. «Ta'lim ne'matlari» insonlarning ta'lim bilan bog'liq bo'lgan faoliyatining o'ziga xos mahsuli sifatidagi iqtisodiy ne'matdir.

Ehtiyojlarni qondira olishi, ta'lim ne'matining nafliligini, uni yaratish uchun harajatlar esa ta'lim ne'matining resurs sig'imkorligini tashkil etadi. Demak, ta'lim ne'mati naflilik va resurs sig'imkorligi belgilariga ega.

Ta'lim ne'mati deganda aynan ma'lum hajmdagi bilim tushuniladi. CHunki, ta'lim majmuasi faoliyatining natijasi yangi hajmdagi bilimlardir. Ular ta'lim tizimining mahsulidir.

Shunday ekan iktisodchi kadrlar faoliyatiga «ta'lim ne'mati» «bilim», «ta'lim xizmatlari», «o'quv dasturi» tshunchalar, bilimlar xakidagi ma'lumotlarning urin olishi muximdir. Demak iktisodchi kadrlar dastlab umumta'lim va maxsus tavsifga ega bulgan bilimlarni va amaliy kunikmalarni egallashlari lozim.

Tahlil va natijalar

Ta'lim xizmatlarining individual tavsifga ega ekanligi uning yana bir belgisidir. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish ijodiy jarayon bo'lib, uni xizmat ko'rsatayotgan sub'ektlardan ajratib bo'lmaydi. Bilim berishning turli uslublari mavjud. Shu nuqtai nazardan ular individual tavsifga egadirlar. Demak, sifat nuqtai nazaridan ta'lim xizmatlari bir biridan farq qiladi.

Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va iste'mol qilish jarayoning bir vaqtning o'zida ro'y berishi ta'lim xizmatlarining yana bir belgisidir. Moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot va uni ayrboshlash orqali iste'mol qilish o'rtasida ma'lum vaqt mavjud bo'ladi, ta'lim tizimida esa xizmatlar bir vaqtning o'zida ham ko'rsatiladi va iste'mol qilinadi.

Xulosa va takliflar Shunday qilib ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- har xil ne'mat turlariga tegishli ekanligi;
- ne'mat sifatida cheklanmaganligi;
- iste'mol qiymatiga egaligi, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi xizmatlar o'ziga xos tovar ekanligi (moddiy tavsifga ega emasligi, tashish, saqlash va yo'q qilib tashlashning mumkin emasligi);
- ta'lim xizmatlarining individual tavsifga ega ekanligi;
- ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va iste'mol qilish jarayonining bir vaqtning o'zida berishi;
- iste'molchilarning ta'lim xizmatlarining ko'rsatilishi jarayonida bevosita ishtirok etishi;
- ta'limga sarflanadigan xarajatlardan oladigan samarani miqdor jihatidan baholashning qiyinligi;
- ta'lim xizmatlariga talabning yuqori darajada egiluvchan ekanligi.

Bizning fikrimizcha, aynan iqtisodiy va pedagogik nazariya nuqtai nazaridan ta'lim xizmatlari kadrlar tayyorlashning ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.
2. Ziyomuxamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2009.
3. Tolipov O', Q, Usmonbaeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
4. Xodiev B va boshq.. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. – T.: TDIU. – 2010 – 97 b.